BIRINCHI VA IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRI O‘ZBEK VA NEMIS DRAMATURGIYASINING QIYOSIY-TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

O.Z.Dadajonov[1]

1. Farg‘ona davlat universiteti f.f.f.d (PhD) +99891 397 47 39 0000-0003-3797-7782

Mas'ul muallif: Dadajonov Oybek Zokirjonovich, Farg‘ona davlat universiteti f.f.f.d (PhD) +99891 397 47 39 0000-0003-3797-7782.

e-mail: oybekdadajonov89@gmail.com

Received: 12 Noyabr 2026
Accepted: 17 Noyabr 2026
Published: 22 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Dadajonov, O. Z. BIRINCHI VA IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRI O‘ZBEK VA NEMIS DRAMATURGIYASINING QIYOSIY-TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI / O. Z. Dadajonov // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 2. — B. 224–226.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Birinchi va Ikkinchi jahon urushi davrida o‘zbek va nemis dramaturgiyasining shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari hamda o‘ziga xos badiiy-estetik xususiyatlari qiyosiy-tipologik aspektda tadqiq etiladi. Har ikki milliy dramaturgiyada urush voqeligining aks ettirilishi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning dramatik asarlar mazmuni va g‘oyaviy yo‘nalishiga ta’siri, inson taqdiri, vatanparvarlik, milliy o‘zlik, tinchlik va insonparvarlik masalalarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek va nemis dramaturgiyasida dramatik konflikt, obrazlar tizimi, qahramonlar ruhiyati hamda urush fojiasini ifodalash usullaridagi mushtarak va farqli jihatlar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: o‘zbek dramaturgiyasi, nemis dramaturgiyasi, qiyosiy-tipologik tahlil, davr va qahramon, drama, tragediya, ekspressionizm.

СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКОЙ И НЕМЕЦКОЙ ДРАМАТУРГИИ ПЕРИОДА ПЕРВОЙ И ВТОРОЙ МИРОВЫХ ВОЙН

Аннотация. В данной статье в сравнительно-типологическом аспекте исследуются становление узбекской и немецкой драматургии в период Первой и Второй мировых войн, основные этапы их развития, а также специфические художественно-эстетические особенности. Анализируется отражение военной действительности в обеих национальных драматургиях, влияние общественно-политических процессов на содержание и идейную направленность драматических произведений, а также художественная интерпретация таких проблем, как человеческая судьба, патриотизм, национальная идентичность, мир и гуманизм. Кроме того, выявляются общие и отличительные черты узбекской и немецкой драматургии в изображении драматического конфликта, системы образов, психологического состояния героев и художественных способов воплощения трагедии войны.

Ключевые слова: узбекская драматургия, немецкая драматургия, сравнительно-типологический анализ, эпоха и герой, драма, трагедия, экспрессионизм.

COMPARATIVE-TYPOLOGICAL FEATURES OF UZBEK AND GERMAN DRAMATURGY DURING THE FIRST AND SECOND WORLD WARS

Abstract. This article examines the formation and development of Uzbek and German dramaturgy during the First and Second World Wars, focusing on their distinctive artistic and aesthetic features from a comparative-typological perspective. It analyzes the representation of wartime realities in both national dramatic traditions, the influence of socio-political processes on the content and ideological orientation of dramatic works, and the artistic interpretation of human destiny, patriotism, national identity, peace, and humanism. Particular attention is paid to identifying the similarities and differences in the representation of dramatic conflict, character systems, the psychological states of protagonists, and artistic techniques used to portray the tragedy of war in Uzbek and German dramaturgy.

Keywords: Uzbek drama, German drama, comparative-typological analysis, period and hero, drama, tragedy, expressionism.

Kirish. XX asr jahon tarixi nafaqat ulkan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar, balki insoniyat boshidan kechirgan eng yirik harbiy-siyosiy to‘qnashuvlar davri sifatida kirdi. Xususan, Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari millionlab insonlarning hayotini, jamiyatlarning ijtimoiy tuzilishini, milliy tafakkur va dunyoqarashini tubdan o‘zgartirib yubordi. Mazkur tarixiy jarayonlar nafaqat siyosat, iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlarga, balki adabiyot va san’atning mazmun-mohiyati, badiiy-estetik tamoyillari hamda obrazlar tizimining shakllanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, inson va jamiyat munosabatlari, urush va tinchlik, hayot va o‘lim, vatanparvarlik, insoniy burch, ma’naviy tanazzul, qahramonlik va fidoyilik kabi umuminsoniy masalalar badiiy adabiyotning yetakchi mavzulariga aylandi. Mazkur davr adabiy jarayonida dramaturgiya alohida o‘rin egallaydi. Chunki drama o‘zining konfliktga asoslangan tabiati, voqelikni bevosita harakat

va dialoglar orqali ifodalash imkoniyati bilan tarixiy davrning keskin ziddiyatlari, ijtimoiy-psixologik muammolarini ta'sirchan aks ettira oladigan adabiy tur hisoblanadi. Urush sharoitida yaratilgan dramatik asarlarda tarixiy voqealar oddiy xronologik tasvir darajasida qolmay, balki inson taqdiri, axloqiy tanlov, shaxsiy manfaat va ijtimoiy mas'uliyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar orqali badiiy talqin etiladi. Shu jihatdan urush mavzusidagi dramaturgiyani o'rganish nafaqat muayyan davr adabiy taraqqiyotini anglash, balki tarixiy sharoitning inson xarakteri va ma'naviy olamiga ko'rsatgan ta'sirini aniqlashda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Qiyosiy tahlilning metodologik asosini V.M. Jirmunskiy tomonidan ishlab chiqilgan qiyosiy-tipologik yondashuv tashkil etadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, bevosita tarixiy-genetik aloqaga ega bo'lmagan adabiyotlarda ham o'xshash ijtimoiy-tarixiy sharoitlar ta'sirida mushtarak badiiy hodisalar yuzaga kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, XX asrning birinchi yarmida o'zbek va nemis dramaturgiyasida urush mavzusining badiiy talqinini qiyosiy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Har ikki xalq jahon urushlari fojiasini boshdan kechirgan bo'lib, bu tarixiy jarayonlar ularning dramaturgiyasida inson taqdiri, qahramonlik, vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy tanlov kabi mushtarak muammolarni yuzaga chiqardi.

Bu o'rinda V.M. Jirmunskiyning Ikkinchi jahon urushi yillarida Toshkentda yashab, H.T. Zarifov bilan hamkorlikda o'zbek xalq qahramonlik eposini tadqiq etgani ham e'tiborga molik. Ularning ilmiy hamkorligi Sharq va G'arb adabiy-ilmiy tafakkuri o'rtasidagi muloqotning muhim namunasi hisoblanadi. Mazkur tarixiy fakt tadqiqotning qiyosiy-metodologik asoslarini yanada boyitadi. Birinchi jahon urushi (1914–1918) nemis dramaturgiyasi tarixida ekspressionizm oqimining yuksalishi bilan bog'liqdir. Urush arafasida va urush yillarida adabiyotga kirib kelgan yosh avlod - V.Gazenklever, E.Toller, G.Kayzer - eski patriarxal dunyoning halokatga mahkumligini, otalar va bolalar o'rtasidagi murosasiz ziddiyatni, yangi inson (der neue Mensch) g'oyasini sahnaga olib chiqdi. Tadqiqotchi Yu.Krasovitskaya ta'kidlashicha, „«Der Neue Mensch» (Yangi inson) tushunchasi nemis adabiyotining muhim badiiy-estetik hodisasi sifatida uzoq yillar davomida ilmiy jihatdan o'rganilib, ekspressionizm nazariyasida alohida mazmun kasb etgan. Muallif mazkur obrazning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish jarayonida uning yangi davr mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan „yangi inson" konsepsiyasidan, shuningdek, keyinchalik sotsialistik mafkuralar doirasida shakllantirirlgan obrazlardan mazmun-mohiyat va g'oyaviy-estetik jihatdan farq qilishini alohida aytib o'tadi. [8].

Natija

Krasovitskaya tomonidan yoritilgan «Der Neue Mensch» (Yangi inson) konsepsiyasining badiiy-estetik mohiyati V.Ganzenklever ijodida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan uning "O'g'il" (Der Sohn, 1914) dramasi ekspressionistik avlodlar isyonining o'ziga xos manifesti bo'lib, 1916-yilda Pragada ilk bor sahnalashtirildi. Asarda ota hokimiyatiga qarshi bosh ko'targan O'g'il obrazi orqali butun bir avlodning urushga olib kelgan eski dunyo tartiblariga isyoni umumlashtirilgan. E.Tollerning "Evrilish" (Die Wandlung, 1919) dramasi urush dahshatlarini boshidan o'tkazgan qahramonning ma'naviy yangilanish yo'lini bekatli drama (Stationendrama) shaklida gavdalantirsa, G.Kayzerning "Gaz" trilogiyasi (1917–1920) texnika sivilizatsiyasi bilan urush o'rtasidagi halokatli bog'liqlikni fosh etdi. Ekspressionistik drama poetikasiga xos belgilar - qahramonlarning mavhum-umumlashgan nomlanishi (O'g'il, Ota, Do'st), ekstatik xitob uslubi, voqelikning subyektiv-ko'tarinki talqini - urush davri insonining ruhiy larzasini ifodalashning ta'sirchan vositasiga aylandi.

Ayni shu davrda o'zbek dramaturgiyasi o'zining shakllanish pallasini boshdan kechirmoqda edi. M.Behbudiyning "Padarkush" (1913) fojiasi bilan tamal toshi qo'yilgan jadid dramasi millatni jaholat uyqusidan uyg'otish, ma'rifatga chorlash vazifasini o'z zimmasiga oldi. "Padarkush" tragediyasining xalq va jamiyat uchun g'oyat muhim ijtimoiy va ma'naviy masalaga bag'ishlanganidan dalolat beradi" [2].

Mazkur fikr ushbu asarning nafaqat muayyan oilaviy fojiaga, balki butun jamiyat hayoti uchun dolzarb bo'lgan ijtimoiy-marifiy muammolarga bag'ishlanganini ko'rsatadi. Shu jihatdan tragediyada shaxs foyiasi ijtimoiy muhitidagi illatlarning badiiy umumlashmasi ko'tarilib, ma'rifat va tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi hal qiluvchi ahamiyati ta'kidlanadi.

Muhokama

Birinchi jahon urushi o'zbek xalqi hayotiga front voqealari orqali emas, balki 1916-yilgi mardikorlikka safarbarlik va u keltirib chiqargan milliy-ozodlik harakati orqali kirib keldi. Bu ijtimoiy larza jadid adabiyotida millat taqdiri uchun qayg'urish, istibdodni inkor etish motivlarini yanada kuchaytirdi. E'tiborlisi shundaki, deyarli bir vaqtda yaratilgan "Padarkush" va "O'g'il" dramalarida tipologik jihatdan o'xshash badiiy model - ota va o'g'il munosabati orqali eski dunyo inqirozini ko'rsatish - qo'llangan. Behbudiyda jaholat qurboniga aylangan ota-bola fojiasi ma'rifatparvarlik g'oyasiga xizmat qilsa, Gazenkleverda o'g'ilning isyoni patriarxal tartiblarning ma'naviy tanazzulini ochib beradi. Bu o'xshashlik ikki xalq dramaturgiyasi taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatdan - tarixiy burilish pallalarida drama janrining ijtimoiy uyg'onish quroliga aylanishidan dalolat beradi.

Ikkinchi jahon urushi (1939–1945) har ikkala xalq dramaturgiyasi uchun tom ma'nodagi sinov davri bo'ldi. 1941-yilda urush boshlangach, o'zbek adabiyoti butun kuch-qudratini g'alaba uchun safarbar etdi. Barcha janrlar qatori drama ham publitsistik o'tkirlik kasb etdi. Urushning dastlabki oylaridayoq yaratilgan K.Yashinning "O'lim bosqinchilarga!" (1941) pyesasi frontga jo'nayotgan jangchilar va front ortidagi mehnatkashlarni g'alabaga da'vat etuvchi asar sifatida keng tarqaldi. Kichik hajmli agitatsion pyesalar, front konsert-teatr brigadalari uchun yozilgan sahna asarlari urush davri o'zbek teatrining tezkor janrlar tizimini tashkil qildi. Front ortidagi fidokorona mehnat, o'zbek xonadonlarining urush tufayli ko'chirib keltirilgan bolalarni o'z bag'riga olishi kabi mavzular ham sahna asarlarida o'z ifodasini topa boshladi.

Biroq urush davri o‘zbek dramaturgiyasining eng katta badiiy yutug‘i tarixiy-qahramonlik fojiasi janrida namoyon bo‘ldi. Hamid Olimjonning "Muqanna" (1942–1943), Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" (1944) she’riy fojialari, Oybekning "Mahmud Torobiy" (1944) librettosi, Uyg‘un va Izzat Sulton qalamiga mansub "Alisher Navoiy" (1940) she’riy dramasi xalq tarixining bosqinchilarga qarshi kurash sahifalarini zamon xizmatiga safarbar etdi.

VIII asrda arab istilochilariga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan Muqanna, XIII asrda mo‘g‘ul bosqiniga qarshi mardona kurashgan Jaloliddin Manguberdi va Mahmud Torobiy obrazlari tomoshabin ongida fashizmga qarshi kurash bilan bevosita bog‘lanar edi. Tarixiy mavzu bu o‘rinda o‘tmishga chekinish emas, balki xalqning g‘alabaga ishonchini mustahkamlashga qaratilgan eng ta’sirchan badiiy vosita edi. Shu bilan birga, tarixiy material dramaturglarga davr va qahramon munosabatini falsafiy teranlikda talqin etish imkonini ham berdi: Shayxzoda Jaloliddin timsolida vatan ozodligi yo‘lida shaxsiy kechinmalaridan voz kechgan qahramonni ulug‘lar ekan, sarkarda fojiasining ildizini ichki nizolar va tarqoqlikda ko‘rsatib, zamondoshlariga ogohlik saboqlarini ham singdirdi. Urush yillarida o‘zbek she’riy dramasi yetakchi shaklga aylandi: yuksak pafos, monumental xalq sahnalari, qahramonlik va fojiaviylik uyg‘unligi tragediya janrining chinakam yuksalishiga olib keldi. Alohida ta’kidlash joizki, Toshkent urush yillarida yirik madaniy markazga aylanib, bu yerga ko‘chirib keltirilgan teatr jamoalari va ijodkorlar bilan muloqot o‘zbek sahna san’ati tajribasini sezilarli boyitdi.

Nemis dramaturgiyasining taqdiri esa tubdan boshqacha kechdi. 1933-yilda natsistlar hokimiyatni egallagach, Germaniyada erkin badiiy ijod uchun imkon qolmadi. Adabiyot va teatr davlat targ‘ibot mashinasiga to‘liq bo‘ysundirildi. Rasmiy sahnada "Thingspiel" deb atalgan ommaviy targ‘ibot tomoshalari rag‘batlantirildi, urush yillarida esa repertuar asosan mumtoz asarlar va yengil tomoshalar bilan cheklandi. Chinakam nemis dramasi bu yillarda ikki o‘zanda yashadi: ichki muhojirlik (innere Emigration) va surgun adabiyoti (Exilliteratur). Ichki muhojirlik namoyandasi sifatida keksa G.Hauptman "Atridlar tetralogiyasi"da (1940–1944) antik mif niqobi ostida o‘z davrining qonli fojiasiga munosabat bildirdi: qurbonlik va qasos haqidagi qadimgi rivoyatlar urush davri o‘quvchisi uchun ochiq zamonaviy mazmun kasb etdi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘zbek va nemis dramaturgiyasini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish urush davri adabiyotining umumiy va milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, tarixiy-siyosiy sharoit dramaturgiyada davr va qahramon masalasining badiiy talqiniga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Nemis dramaturgiyasida Birinchi jahon urushi ekspressionistik drama taraqqiyotini kuchaytirib, insonning ichki iztirobi, avlodlar ziddiyati va eski dunyo tartibining inqirozini namoyon etdi. O‘zbek dramaturgiyasida esa urush davrida vatanparvarlik, milliy birlik va tarixiy qahramonlik motivlari yetakchi mavqega ko‘tarildi. Ayniqsa, «Muqanna», «Jaloliddin Manguberdi», «Mahmud Torobiy» kabi asarlarda tarixiy qahramonlar obrazlari zamonaviy kurash va g‘alaba g‘oyalari bilan bog‘langan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Каримов Н., Назаров Б., Норматов У. ва бошқ. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент: Ўқитувчи. 1999.

[2] Каримов Н. Беҳбудий – жадид театрининг назариётчиси // Ўзбек тили ва адабиёти. журнали, 2019. №4. – Б.67.

[3] Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва бошқ. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Тошкент: Маънавият. 2004.

[4] Турсунов Т. Ўзбек театри тарихи. Тошкент: Санъат. 2008.

[5] Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. Ленинград: Наука. 1979.

[6] Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. Москва: Гослитиздат. 1947.

[7] Wegner M. Exil und Literatur: Deutsche Schriftsteller im Ausland 1933–1945. Frankfurt am Main: Athenäum Verlag. 1967.

[8] Красовицкая Ю “Der neue Mensch” в немецкой экспрессионистской драме. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Москва. 2017.